

## 2018 yilning yanvar-may oylarida Qoraqapog'iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarilishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **3559,9** mlrd.so'mni, o'sish sur'ati - **111,3 %** ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati -**103,6%**
- Sanoat ishlab chiqarishning kichik biznesdagi ulushi - **12,0 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-may oylarida respublika korxonalarini tomonidan 3559,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishining asosiy omili bo'lib, qayta ishlash sanoatida ishlab chiqarish hajmining 10,5 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning 17,3 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 6,8 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning-83,0 % ga o'sishi hisoblanadi.


**2018 yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.**  
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan %)



Korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi ishlab chiqaradigan sanoatda 3155,1 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 88,6 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 212,1 mlrd.so'mni (6,0% ni), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 140,9 mlrd.so'mni (4,0% ni), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda 51,8 mlrd.so'mni (1,4% ni) tashkil etdi.


Tayer mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish va turlarini kengaytirish, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini 2017 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 103,6%ga o'sishiga ta'sir ko'rsatdi va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 11,8 % ni tashkil etdi.

### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari** (2018 yil yanvar-may oylari uchun)




2017-yilning yanvar-mayga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 2018 yilning yanvar-may oylarida 25,9 % dan 26,9 % ga oshishi ko'zatilmoqda.

**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da**  
(yanvar-may oylari uchun)



Hududlarning sanoat saloxiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Muynoq (2017 yilning yanvar-apreliga nisbatan 121,8% ga), Amudaryo (116,6% ga), Qorao'zak (115,6% ga), Xujayli (112,5%) va Nukus shahrida (112,1% ga) ishlab chiqarish hajmining sezilarli darajada oshishi ta'minlandi.

**Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari**  
(2018 yilning yanvar-may oylari uchun)  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Kichik tadbirkolik sub'ektlari sanoat faoliyatining keskin o'zgarib borishi natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,0% ga oshishini ta'minladi va jami sanoatda kichik biznesning ulishi 12,0 % tashkil etdi.

### **Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun ma'sul:

T. Gulmurzaeva

Aloqa telefoni:

*(0371) 230-82-09*